

To'rayeva Nilufar Orolovna

Termiz tumani

13 umumiy o'rta ta'lif maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sinflarda do'stona muhitni shakllantirish, dars jarayonida o'quvchilarni intizomiga rioya qilishga chaqirish va bunda foydalaniladigan metod va uslubiyatlar yoritilgan

**Kalit So`zlar:** Pedagogik mahorat, “Oltin qoida”, xulq-atvor, kasbiy mahorat

## KIRISH

Jamoani ijtimoiy-psixologik muhiti - guruhning eng ajralmas psixologik xarakteristikasidir, bu guruhning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan alohida ob'ektlarni (hodisalarini, jarayonlarni) aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy jarayondir. Guruh faoliyatining samaradorligi jamoaning ijtimoiy-psixologik muhiti holatiga bog'liq.

Dars intizomiga rioya qilish nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham “Oltin qoida” hisoblanadi. Chunki o'quvchilarga Davlat ta'lif standartlari talablari darajasida berilishi talab qilingan bilim, ko'nikma va malakalar asosan ana shu dars jarayonida hosil qilinadi. Ma'lumki, o'qituvchilar o'z faoliyatlarida o'quvchilarning dars intizomi bilan bog'liq juda ko'p muammolarga duch keladilar. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarga jiddiy talablarni qo'yib, unga qat'iy rioya qilishni astoydil talab qiladilar. Bunday talablar esa o'quvchilarga yoqmaydi. Natijada, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro nizolar kelib chiqib, dars samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. Har bir darsning tashkiliy davridan boshlab to yakuniy qismiga qadar o'qituvchining sinfda o'zini tutishi, barcha xatti-harakatlari o'quvchilar tomonidan kuzatilib boriladi.

Agar o'qituvchi ortiqcha harakatlar qilsa, bu o'quvchilarga yoqmaydi. Pedagogik mahorat, taktika va pedagogik texnikadan o'z o'mida va unumli foydalangan o'qituvchining darslari hamisha do'stona muhitda o'tadi. Bordi-yu buning aksi bo'lsa-chi? Unday holda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida konfliktli vaziyatlar sodir bo'lishi muqarrar. Aslini olganda intizomni buzgan o'quvchi o'zining xatti-harakati noto'g'ri ekanligini biladi, lekin u o'z xulqining motivini tushunmaydi. Sinfdag'i har bir bola uchun bu xatti-harakatning turli sabab va maqsadlari mavjud bo'ladi. Pedagog-o'qituvchilar bu motivlarning qanday bo'lishiga qaramay, ularga ta'sir etish usullarini topishlari zarur. Agar o'qituvchilar xulq-atvorning buzilish maqsadlarini aniqlashga qodir bo'lsalar, u holda o'quvchi bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnata oladilar. Bunda to'g'ri strategiyani tanlash qadamma-qadam muammoni yechimini topish imkonini beradi.

## ASOSIY QISM

O'quvchining xulq-atvoriga samarali ta'sir etishning rejasini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu reja quyidagicha bo'lishi mumkin: -“yomon” xulq-atvorning sababini aniqlash; -Uni bartaraf etish usullarini tanlash; -O'quvchini qo'llab-quvvatlashning kelgusi taktikasini

ishlab chiqish; -Muammoni hal etishga ota-onalarni va pedagoglarni jalb etish. Rejani amalga oshirishda o'qituvchi ketma-ketlikdagi bir qator vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi.

1-vazifa. Muammoli xulq-atvorni xolisona izohlash.

2-vazifa. Yomon xulq-atvorning sababini tushunib olish. "Yomon" xulq-atvorning motivlari quyidagicha bo'lishi mumkin: -E'tibor talab etish; -O'z so'zini o'tkazishga harakat qilish; -Qasd olish istagi; -Omadsizlikdan qochish.

3-vazifa. O'qituvchining nuqtai-nazari va munosabatining o'zgarishi. O'qituvchi o'quvchi bilan ma'lum qoidalar doirasida munosabat qilishlari lozim.

1-qoida. O'quvchi shaxsiga emas, balki uning ayni vaqtdagi xulq-atvoriga diqqatni qaratish. Uning xulq-atvorini muhokama qilayotganda xolisona baho berishga harakat qilish.

2-qoida. O'qituvchi o'zining negativ his-tuyg'ularini nazorat qilish.

3-qoida. Vaziyatni yanada keskinlashtirmaslik choralarini ko'rish.

4-qoida. O'quvchining xatti-harakatini butun sinf oldida emas, balki darsdan so'ng bir o'zi bilan muhokama qilish.

5-qoida. Odatda o'quvchilar o'qituvchining barcha aytganlarini "o'zlari xohlagandek", ya'ni aftalarini bujmaytirib, shoshmasdan, bajaradilar. Agar o'qituvchi bunga ahamiyat bermasa, o'quvchi o'z-o'zidan qoidaga bo'yso'nishi mumkin, o'rtada qarama-qarshilik paydo bo'lmaydi.

6-qoida. O'quvchiga do'q-po'pisa qilish, baqirish, uni ayblash kabi agressivlikni namoyon qilmaslik.

Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit Sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimning eng muhim belgilari:

- guruh a'zolarining bir-biriga bo'lgan ishonchi va yuqori talabchanligi;
- o'zaro do'stona va konstruktiv tanqid qilish;
- butun jamoaga tegishli masalalarni muhokama qilishda o'z fikrini erkin ifoda etish;
- menejerlarning bo'ysunuvchilarga bosimining yo'qligi va ularning guruh uchun muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilish huquqini tan olishlari;
- jamoa a'zolarining vazifalari va ularni amalga oshirishdagi ishlar holati to'g'risida yetarli darajada xabardorligi;
- jamoa a'zolarida jamoaga tegishli bo'lganidan mammunlik hissiyoti;
- jamoaning har qanday a'zosida ko'ngilsizlik holatini keltirib chiqaradigan holatlarda (aldanish, umidsizlik, rejalarни buzish) yuqori darajada hissiy ishtiroy etish va o'zaro yordam;
- guruhning har bir a'zosi tomonidan ishlarning holati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish va boshqalar.

Ushbu dasturni amalga oshirishda quyidagi qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1) rahbarlarning kasbiy mahoratini oshirish, mehnat jamoasini boshqarish va psixologik muhitni holatini normallashtirish bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, tashkiliy va tarbiyaviy ishlar usullari va uslublari;

2) personal malakasini oshirish, kasbiy malakasini oshirish, xodimlarning karera rejalahtirish imkoniyatlarini ta'minlovchi kadrlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

3) jamoa bilan qo'shma tajribalarda yutuq va muvaffaqiyatsizliklarni aniqlash;

4) agar kerak bo'lsa, rahbarlik uslubini o'zgartirish orqali tashkilotdagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yanada takomillashtirish;

5) psixologik muvofiqligi asosida jamoani shakllantirish;

6) boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida xodimlarning salohiyatidan foydalanish;

7) xodimlar o'ttasidagi rasmiy va norasmiy aloqalar chastotasing ko'payishiga ko'maklashish, ularning afzalliklarini ko'rsatib, ularning kasbiy o'sishiga ko'maklashish;

8) jamoaning bo'sh vaqtlarini birgalikda tashkil etish va o'tkazish: - sport musobaqalarini o'tkazish; - teatrlarga, kinolarga, konsertlarga qo'shma tashriflarni tashkil etish; - maxsus ayramlar, sanalar va marosimlar uchun ziyofatlar tashkil etish.

#### XULOSA

Muhitni sog'lomlashtirishda psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari aktuallashmoqda. Bu mutaxassisning ta'sir eta olishi va psixokorreksion ishning sifatliligidandir. - Ishning samaradorligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar.

#### ADABIYOTLAR:

1. Дусмухамедова Ш.А. Психологические особенности педагогической оценки в обучении детей шестилетнего возраста: Автореф. дис.... канд. психол. наук. М., 1987. 24 с : Канд дис. – М.: НИИ АПН СССР, 1988.–162 с, 1987.

2. Дусмухамедова Ш., Салиева Д., Максимова Л. А. Соотношение уровня развития академической самостоятельности младших школьников с показателями учебной мотивации и стилем педагогической деятельности (на примере учащихся начальных школ Узбекистана) //Педагогическое образование в России. – 2020. – №. 2. – С. 77-83

3. Khamidovna K. Z. Professional orientation of communicative competence of students //European science. – 2020. – №. 2-2 (51

4. Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управлеченческих решений //Молодой ученый. – 2019. – №. 44. – С. 298-300

5. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533>

Vol. 2 No. 20 (2023): PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS  
247-254-bet

6. A'zamxonov S.X. TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106>

Vol. 2 No. 22 (2022): IJODKOR O'QITUVCHI 381-386-bet

7. A'zamxonov S.X. TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272>

Vol. 1 No. 12 (2022): O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA İLMIY TADQIQOTLAR JURNALI 453-459-bet

8. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>

9. Ахмедова Ф.М. Pandemiya davridagi ta'lim tizimi Журнал социальных исследований, 2020

10. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.

11. Isropilov M. B. THE ROLE OF PR TECHNOLOGIES IN ENSURING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SOCIETY //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.

12. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan-Eastern European Scientific Journal, 2018